

**HUQUQIY DAVLAT SARI QADAMLAR: YURIDIK SOHADA XADICHA
SULAYMONOVANING O'RNI VA AHAMIYATI**

Shodiyeva Irisa Soatmurod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

bakalavr, 2-bosqich talabasi

E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

ORCID: 0009-0007-4908-1234

Xotin-qizlar barcha soha va tarmoqlarda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo 'lib, yuksak hurmat-ehtiromda yashagan mamlakatda, albatta, tinchlik va hamjihatlik, o'sish va yuksalish bo'ladi.

(Shavkat Mirziyoyev)

Annotatsiya: ushbu maqolada yuridik soha merosiga ulkan xissa qo'shgan va sud huquqtizimida o'chmas iz qoldirgan ayol Xadicha Sulaymonovaning ibratli hayot yo'li va uning huquqiy davlat qurishga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda ayol rahbarlarning o'rni va Xadicha Sulaymonovaning faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar yoritilgan. Maqolada X.Sulaymonovaning ilmiy merosini avaylash va uning xotirasini abadiylashtirish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan va oshirilgan islohotlarning to'liq bayoni ham o'rinn olgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, yuridik soha, huquqshunos, huquq, huquqiy davlat, jinoyat huquqi, ilmiy meros, huquqiy ong va madaniyat.

Аннотация: в данной статье анализируется образцовый жизненный путь Хадичи Сулаймановой, женщины, внесшей большой вклад в наследие правового поля и оставившей неизгладимый след в судебной системе, и ее вклад в строительство правового государства. Также освещена роль женщин-лидеров в Узбекистане и информация, связанная с деятельностью Хадичи Сулаймановой. В статье также содержится полное описание реформ, реализованных и расширенных в нашей стране в целях сохранения научного наследия Х. Сулаймоновой и увековечения ее памяти.

Ключевые слова: женщины, правовое поле, юрист, право, правопорядок, уголовное право, научное наследие, правосознание и культура.

Abstract: this article analyzes the exemplary life path of Khadicha Sulaimanova, a woman who made a great contribution to the heritage of the legal field and left an indelible mark on the judicial system, and her contribution to building a legal state. Also, the role of women leaders in Uzbekistan and information related to the activities of Khadicha Sulaimanova are highlighted. The article also contains a full description of the reforms implemented and increased in our country in order to preserve the scientific heritage of Kh. Sulaymonova and perpetuate her memory.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

Key words: women, legal field, lawyer, law, rule of law, criminal law, scientific heritage, legal consciousness and culture.

Huquqiy davlat qurishga intilish har qanday demokratik davlatning asosidir. Hech qanday xalq yoki davlat yo'qki, davlatida umumfarovonlik bo'lishini istamasa, qonuniylik vaadolat deb atalmish prinsiplarni o'rnatishdan tiyilsa. Zero, huquqiy davlatgina erkin va farovon tumushni ta'minlovchi mamlakatdir. Ammo bu yo'lida o'z umrini tikish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Xadicha Sulaymonova aynan ana shunday ayollardan edi.

Xadicha Sulaymonova... Ushbu ayolni tilga olishimiz bilan "adolat", "qonun", "inson qadri" kabi tushunchalar ham quyilib kela boshlaydi go'yo. Chunki ushbu ayol nafaqat o'z umr yo'lini ilmga bag'ishladi, balki butun mamlakat, ayniqsa, davlatning barcha ayollari uchun ulkan siymo bo'lishga ulgurdi, desam adashmagan bo'laman.

1913-yil iyulda Turkiston o'lkasining chekka shaharchasida Sulaymon Kelginboyev oilasida chaqaloq tug'ildi. Uchta farzandning kenjasib bo'lgan Xadicha Sulaymonova erta otasidan ayrilishiga qaramay, onasi Otincha ham ona, ham ota bo'lib qizining kamoloti uchun harakat qildi. Xadicha Sulaymonovaning yurdik sohaga qiziqishi 17 yoshidan boshlandi. Bunga sabab esa o'sha davrdan ayollarning ozodligi uchun kurashgan Tojixon Shodiyevaning "Hujum" harakati natijasida o'ldirilgan ayol Nurxonning sud majlisida bildirgan fikrlari edi. Tojixon Shodiyeva balog'atga yetmasdan erga berilgan bo'lishiga qaramay, o'z irodasi bilan o'zini bu azobdan qutqarib o'qigan ayollardan bo'lgan. Aynan ushbu sud jarayoni Xadicha Sulaymonovani ko'nglida yurdik sohaga mehr uyg'otdi, u ham kelajakdaadolat posboni bo'lishga harakatini boshladi. Avval Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq institutida endigina ochilgan huquq fakultetida o'qiydi. U o'z oldiga yangi Sovet yuridik fanining rivojiga ulkan hissa qo'shishni maqsad qilib qo'ydi. Jumladan, u, eng avvalo, huquq sohalari ichidan jinoyat huquqi mutaxassisi bo'lishni maqsad qilib olgandi. Ammo o'sha davr muhitida "ayol-sudya", "ayol-tergovchi" kabi tushunchalar yot tushunchalar bo'lib, bunday darajaga erishish uchun favqulodda jasorat hamda iste'dod talab qilinardi. Lekin Xadicha Sulaymonova "faqatgina erkaklar yuridik sohada ishlashi mumkin, faqatgina erkaklar davlat boshqaruvida rahbar bo'la oladi" kabi fikrlarga e'tibor bermay, yo'lida sobit davom etgan buyuk olma ayollardan edi. Uning ulkan natijalarga erishishda S. E. Avrux, G. M. Arenberg kabilarning hissasi, ayniqsa, nihoyatda katta bo'lgandi. Va nihoyat, 1935-yil xalq sudyasi sifatida yuridik sohaga kirib keldi.

Keyinchalik ham Xadicha Sulaymonovaning faoliyati aynan jinoyat mutaxassisligi bo'yicha davom etdi. Ammo urush tufayli dissertatsiyasi kechikkaniga qaramay, 1938-yildan boshlab, ko'proq ilmiy faoliyatiga urg'u berdi. Jinoyat huquqi va nazariyasini chuqr o'rganish bilan birga o'z bilimlarini talabalarga ulashishga harakat qildi. Urush tugagach, yana o'z izlanishlarini davom etitirib, 1956-yildan Adliya vaziri vazifasini ham qabul qilib oladi. 1964-yilda esa Oliy Sud raisasi etib tayinlanadi. Bu haqida Yodgor Nasriddinova shunday yozgan edi: "Oliy sud lavozimi juda mas'uliyatli. Partiyamiz huquq-tartibot ishlarini amalga oshiruvchi organlarimizga qanchalik katta talablar qo'yayotgani

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

barchamizga ma'lum. Xadicha Sulaymonovaning Oliy sud raisligiga ko'tarilishi partiya va xalqning mehnatkash xotin-qizlariga ko'rsatayotgan yuksak ishonchining yana bir ifodasidir". Haqiqatan ham Xadicha Sulaymonovaning ishtiyoqi, ayollarga xos qat'iyati uni doimo o'z sohasining ustasi bo'lishga undar, davlat boshqaruvi, jumladan, huquqiy davlat qurishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishishga turtki bo'lardi.

Bilamizki, huquqiy davlat o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, buning uchun o'ziga xos belgilar ham sanab o'tiladi, ya'ni:

- ✓ huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksakligi;
- ✓ qonuniylilikning ta'minlanganligi;
- ✓ huquqning ustunligi;
- ✓ fuqarolarning huquq va manfaatlari kafolatlanganligi kabilar.

Xadicha Sulaymonova buni juda yaxshi anglaganligi uchun ham huquqbazarliklarni kamaytirish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat bergen. Shuningdek, odil sudlovda ayollarning ham o'rni yuksak ekanligini isbotlagan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Xadicha Sulaymonova "bir qo'li bilan beshikni, bir qo'li bilan yurdik sohani tebratgan" noyob iste'dod sohibasi bo'lgan. U hozrgi kunda bong urilayotgan "gender tengligi", "inson qadri" kabi tushunchalarini o'z davriha kiritgan bo'lib, davlatni boshqarishda xotin-qizlar uchun o'rnak hisoblanadi. Zero, yurtboshimiz tomonidan ilgari surilayotgan "xotin-qizlar salmog'ini har sohada, jumladan, siyosiy sohada, davlat boshqaruvida oshirish"ga qaratilgan g'oyalari Xadicha Sulaymonovaning umr yo'lida aks etgandek. So'zimni muxtasar qilib, Fitratning ushbu xitobini keltirmoqchiman. Zero, Xadicha Sulaymonova umr yo'li, huquqiy davlat qurishdgi sa'y-harakatlari quyidagi misralarda mujassam:

E Vatan! Sendan shu onda hol-ahvol so'ramoqchiman,
Tuprog'ing ostidagi sirlaring ochmoqchiman,
Milliy istiqloliyot barqaror bo'lmas ekan,
Boshim oqqan yoqqa men bir yo'la qochmoqchiman".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muharram Nazarova "O'zbekistonda ayollar ijtimoiy muammolarini hal etishda xotin-qizlar faolligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy tamoyillari"

2. M. Hakimov, R. Axmedov, A. Saidov "Xadicha Sulaymonova – huquqshunos, olima, davlat arbobi". 1993.

Foydalilanigan veb-sahifalar:

1. www.huquqburch.uz
2. www.wikipedia.uz
3. www.cyberleninka.ru